

# Yangi koronavirus (COVID-19) va Vantaa shahrida koronavirusni o'rganish va davolash haqida ma'lumot

## Kasallik haqida umumiy ma'lumot

Yangi koronavirus (COVID-19) odamlar va hayvonlarda uchraydigan koronaviruslar oilasiga tegishli. Odatda, koronaviruslar nafas olish yo'llarida yengil infeksiya, ya'ni oddiy shamollash yoki grippni keltirib chiqaradi. SARS va MERS koronaviruslari kasallikning jiddiyroq turlariga sabab bo'lgan. Yangi koronavirus 2019-yil dekabr oyida aniqlandi va shundan keyin butun dunyoga tarqaldi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) 2020-yil mart oyida COVID-19 epidemiyasini pandemiya deb e'lon qildi.

COVID-19 kasalligi oddiy gripp kasalliklariga qaraganda jiddiyroqdir. Yevropada 2020-yil 8-apreligacha COVID-19 yuqtirganlarning taxminan 1,5 foizi vafot etgan. Haqiqiy o'lim darajasi pastroqligi taxmin qilinadi, chunki kasallikning barcha yengil holatlari aniqlanmagan. Finlandiyada 2020-yil 20-maygacha 6999 kishi kasallikni yuqtirdi, 301 ta o'lim holati aniqlandi.

Aksariyat odamlar kasallikning yengil shaklini yuqtiradilar va uy sharoitida davolana oladilar. Intensiv davolanishni talab qiladigan va o'limga olib keladigan jiddiyroq shakli yosh va sog'lom odamlarning oz qismida ham uchraydi. Bu kasallik ayniqsa keksalar va surunkali kasalliklarga chalingan odamlar uchun xavflidir.

Finlandiyada jiddiy kasallik xavfi guruhlariga quyidagi guruhlar kiradi:

- 70 yoshdan oshganlar
- Jiddiy yurak xastaligi bor odamlar
- O'pkada simptomatik kasalligi bor odamlar
- Diabetga chalingan, organlariga diabet shikast yetkazgan odamlar
- Jigar va buyrak yetishmovchiligi bo'lgan odamlar
- Immunitetni pasaytiradigan kasalligi bor odamlar (masalan, kimyoviy terapiya olgan leykemiya yoki limfoma)
- Immunitet pasayishiga olib keladigan dori-darmon iste'mol qiladiganlar (masalan, katta dozada tabletkali kortizon terapiyasini olgan odamlar)
- Patologik semirish (tana massasi 40 dan oshadi) va doimiy chekish qo'shimcha xavf omilidir

Koronavirus kasalligi tromboz xavfini oshiradi. Tromboz xatar omillarga ega bo'lgan koronavirusli bemorlarda, zarur hollarda, antikoagulyant yuborish orqali qisqa muddatli terapiya boshlanadi. Ushbu terapiya bepul.

## Kasallikning yuqishi, alomatlari va tasdiqlanishi

COVID-19 kasalligi asosan yuqtirgan odam yo'talganida yoki aksirganida tomchi orqali yuqadi. Teginish orqali ham yuqishi mumkin, agar yuqtirgan odam qo'lga yo'talib, keyin boshqa kishiga tegsa. Oraliq yaqin bo'lsa, masalan, yuzma-yuz suhbatlashganda ham yuqishi mumkin.

Rivojlanish davri yoki kasallik yuqqanidan alomatlar paydo bo'lishigacha 1-14 kun ketadi, odatda 4-5 kunda chiqadi. Alomatlar paydo bo'lgan paytda odam boshqalarga eng ko'p yuqtiradi, ammo alomatlar

boshlanishidan 1-2 kun oldin ham yuqtirishi mumkin. Yuqtirgan odam kasallikni taxminan 1-2 hafta, ba'zan undan ham ko'proq vaqt davomida tashiydi. Tashib yurish davomiyligi alomatlarning davomiyligiga bog'liq.

Koronavirus kasalligining alomatlariga isitma, yo'talish, nafas qisishi, mushaklarda og'riq, charchoq, burun oqishi, ko'ngil aynishi, diareya, ta'm va hid bilishning susayishi kiradi. Bir yoki bir nechta alomatlari birga uchrashi mumkin.

Koronavirus kasalligi burun-halqumdan olingan mazok bilan tasdiqlanadi, uning natijasi odatda 48 soat ichida chiqadi. 2020-yilning 20-may holatiga ko'ra, namunalar Vantaa shahrining Pakkala tumanidagi avtomobilda diagnostika qilish bekatida olinadi. Namuna olish vaqti oldindan belgilanadi, ko'rsatmalar quyida keltirilgan. Martinlaakso tibbiyot markazida har qanday holatda ham shifokor tekshiruvini talab qiladigan bemorlardan shifokorning qabul qilish vaqtiga qarab, namuna olinadi. Shifoxonada tibbiy yordamga muhtoj bemorlardan zarur bo'lganida namuna olinadi.

Koronavirusni tekshirish va davolash yuqumli kasalliklar to'g'risidagi qonunga binoan bepul amalga oshiriladi.

## Finlandiyada davolash va nazorat

Koronavirusni tekshirish va davolash yuqumli kasalliklar to'g'risidagi qonunga binoan bepul amalga oshiriladi.

Finlandiya yuqumli kasalliklar to'g'risidagi qonuniga binoan, koronavirus kasalligi xavfli yuqumli kasallik deb tasniflanadi, chunki bu juda yuqumli va hatto hayot uchun xavfli kasallik bo'lib, agar nazoratsiz tarqalsa, jamiyatda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi va sog'liqni saqlash tizimiga og'irlik tushiradi.

Finlandiya hukumati koronavirus epidemiyasini bartaraf qilish uchun bir qator jiddiy choralarni amalga oshirdi. Kasallikning umumiy nazorati bilan birga ijtimoiy aloqalarni cheklash ham muhim ahamiyat kasb etadi, bu tomchi orqali yuqish xavfini kamaytiradi. Agar sizda koronavirusga o'xshash yengil alomatlar sezilsa, odamlar bilan uchrashish uchun ishxonaga, maktabga yoki boshqa joyga bormasligingiz kerak; buning o'rniga uyda qoling va shifokorga murojaat qiling. Sog'lom bo'lsangiz ham, tomchi orqali yuqtirmaslik uchun qo'lni muntazam yuvib turish va yo'talganda yoki aksirganda og'iz va burunni bukilgan tirsak bilan to'sish muhim. Bu o'zingizni ham, boshqalarni ham infeksiyadan himoya qilish uchun kerak. Agar kasal bo'lib qolsangiz, uydagi har bir kishi alohida xonada turish, alohida sochiq ishlatish va qo'l gigiyenasiga rioya qilish orqali yuqtirishdan saqlanishga harakat qilishi kerak.

## Karantin va izolyatsiya

Boshqalarga yuqtirmasligi uchun kasallikni yuqtirgan odamni izolyatsiya qilish kerak. Uyda izolyatsiya qilinadi. Kasallangan odamni alomatlar paydo bo'lganidan boshlab, taxminan 14 kun izolyatsiya qilinadi. Infeksiya yuqishi mumkin bo'lgan odamlar uyda 14 kun, ya'ni inkubatsiya davrida karantinga qo'yiladi. Virus yuqtirgan odam bilan bitta uyda yashovchi odamlarda karantin uzoqroqqa cho'ziladi, chunki uy sharoitida yuqish ehtimoli uzoqroq davom etadi.

Karantin - bu odamning harakat erkinligini cheklash va boshqalarning simptomsiz tashuvchidan yuqtirishining oldini olishdir. Izolyatsiya yoki karantin davrida har bir kishiga ko'rsatmalar telefon orqali beriladi. Karantin va izolyatsiya bu Yuqumli kasalliklar to'g'risidagi qonunga asoslangan tartibga soluvchi qoidalar bo'lib, ularga rioya qilish shart. Yuqumli kasalliklar to'g'risidagi qonunga binoan, bu qoidalarni buzgan har qanday shaxs izolyatsiya

yoki karantinda (qo'riqlash, eshikni tashqaridan qulflash orqali) majburan ushlab turilishi mumkin. Qoidani buzganlar jarima yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi mumkin.

Karantin yoki izolyatsiya paytida uyingizdan tashqarida hech kim bilan aloqa qila olmaysiz. Boshqa odamlar bo'lmagan joylarda ochiq havoda yurish mumkin. Tashqarida doim boshqalardan 2 metr masofani saqlash kerak. Do'konga, dorixonaga borish yoki boshqa ishlarni bajarish, jamoat transportidan foydalanish mumkin emas. Masalan, ishxonaga, maktabga yoki ko'p qavatli uydagi umumiy foydalanish joylariga borish mumkin emas.

Karantin yoki izolyatsiya tufayli ishidan ayrilgan har qanday shaxs Kela tomonidan to'lanadigan yuqumli kasallik nafaqasini olish huquqiga ega, bu ish haqingizni to'liq (100%) qoplaydi. Izolyatsiya yoki karantinga qo'yilganlarga tuman yuqumli kasalliklar bo'limidan izolyatsiya/karantin guvohnomasi va zarur hujjatlar pochta orqali yuboriladi. Agar karantin davrida uydan ishlayotgan bo'lsangiz va buning uchun kompensatsiya olsangiz, yoki ta'tilda yoki hozirda ishsiz bo'lsangiz va shu sababli karantin/izolyatsiya tufayli daromaddan ayrilmasangiz, yuqumli kasallik nafaqasi berilmaydi.

## Kasallikni yuqtirganingizni gumon qilsangiz, nima qilish kerak

**Agar alomatlarni sezsangiz, maktabga yoki ishxonaga bormang, diagnostika uchun tibbiy yordamga murojaat qiling.** 2020-yil may oyida qo'llanilgan amaliyotga ko'ra, hatto yengil alomatlari sezilganlar ham diagnostika qilinishi kerak.

Iloji bo'lsa, alomatlarni elektron baholash shaklini bu yerda to'ldiring: [pro.klinik.fi/contact/vantaan-terveysasemat](https://pro.klinik.fi/contact/vantaan-terveysasemat) (fin, shved va ingliz tillarida).

Agar buning iloji bo'lmasa, tibbiyot markazlarining 09 839 50 000 telefon raqamiga ish kunlari soat 8.00 dan 16.00 gacha va dam olish kunlari soat 8.00 dan 22.00 gacha qo'ng'iroq qiling (yordam berishi uchun ona tilingizdagi tarjimonni talab qilishingiz mumkin).

### **Agar alomatlaringiz davolanishni talab qilsa**

Agar sizda jiddiy alomatlar bo'lsa va uy sharoitida davolay olmasangiz va shifokor baholashini talab qilsangiz, tibbiyot markazlarining 09 839 50 000 telefon raqamiga ish kunlarida 8.00 dan 16.00 gacha qo'ng'iroq qiling (yordam berishi uchun ona tilingizdagi tarjimonni talab qilishingiz mumkin), boshqa paytlarda tez tibbiy yordamga, 116 117 raqamiga qo'ng'iroq qiling.

Davolash va baholashni talab qiladigan yuqori nafas yo'llari infeksiyasining alomatlariga umumiy holsizlanish, uzoq davom etadigan isitma va nafas olish qiyinlashishi kiradi.

**Favqulodda holatlarda 112 raqamini tering.**

## Martinlaakso tibbiyot markazi endi koronavirus tibbiyot markaziga aylandi.

Martinlaakso tibbiyot markazi dushanbadan jumagacha soat 8.00 dan 16.00 gacha ishlaydi. Koronavirus tibbiyot markazi bemorlarni yo'llanma asosida davolaydi. Agar siz uy sharoitida davolay olmasangiz, shifokor qabuliga yozilish uchun tibbiyot markazga qo'ng'iroq qiling, tel. 09 839 50 000 (dushanbadan jumagacha soat 8.00-16.00, shanba-yakshanba soat 8.00-22.00). Yordam berishi uchun ona tilingizdagi tarjimonni talab qilishingiz mumkin. Agar telefon orqali rejalashtirish mumkin bo'lmasa, zarur hollarda to'g'ridan-to'g'ri tibbiyot markazga boring.

Vantaa shahrida yashovchi va shifokor tekshiruvini talab qiladigan, nafas olish yo'llarida alomatlar sezilgan odamlar Martinlaakso markazida davolanadi. Boshqa tibbiyot markazlariga bormang.

Vantaa shahri, 22-may, 2020

Manbalar: sog'liqni saqlash va xususiy sektor uchun HUS ko'rsatmalari: Koronavirusdan (COVID-19) shubhalanish. Yangilandi 14.5.2020; Vantaa shahar veb-sayti 20.5.2020; Vantaa yuqumli kasalliklar bo'limini izolyatsiya qilish va karantin bo'yicha ko'rsatmalari 22.5.2020; THL veb-sayti 20.5.2020.